

AKADEMIK LITSEYIMIZNING BILIMDONLARI

2015-yil 28-yanvar kuni Respublika ixtisoslashtirilgan muzika va san'at akademik litseyida o'quvchilarni huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda yurtimizda inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi hamda milliy g'oyalarni o'quvchi yoshlar ongiga singdirish orqali ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida, 8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida tashkil etilgan "Huquq bilimdonlari" nomli tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda yuridik fanlari doktori, xalqaro huquqshunos, aktyor Otabek Mahkamov "Hakamlar hay'ati" sifatida ishtirok etdi.



Bellashuv 9-sinf o'quvchilari ishtirokidagi "Spiker" jamoasi hamda



8-sinf o'quvchilari ishtirokidagi "Femida" jamoalari o'rtasida bo'lib o'tdi. Bellashuv 4 shart asosida o'tkazilib, 5 ballik tizimda baholandi. 1-shart. "Tanishtiruv sharti" bo'lib, jamoalar o'zlarining badiiy chiqishlari orqali o'zlarini, ko'krak nishonlarini, jamoasining nomi, shiorini tanishtirib o'tdilar.



2-shart. "Test sinovlari" bo'lib, bunda jamoalar har biri 20 ta test savollariga javob berishdi.



3-shart. “Huquqiy bilimdonlik”deb nomlanib, guruh a`zolari uchtdan savolga javob berishdi.



4-shartda. “Sahna ko’rinishi” bu shartda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va ularni oldini olish uchun amalga oshirilayotgan chora- tadbirlar borasida jamoalar o’zlarining sahnaviy ko’rinishlarini namoyish etishdi.



Bellashuv natijasiga ko'ra "Spiker" jamoasi g'olib deb topildi va jamoalarga I va II darajali diplomlari hamda esdalik sovg'alar topshirildi.



Tadbir so'nggida O. Mahkamov bilan suhbat bo'lib o'tdi. O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi. O.Mahkamov faol, bilimdon o'quvchilar borasida o'zining fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.



Respublika miqyosida o'tkazilgan ko'rik tanlovlarda faxrli o'rinlarni olgan, iqtidorli o'quvchilarga O.Mahkamov tomonidan faxriy yorliqlar topshirildi.



Huquq fani o'qituvchisi Shodiyorova G